



2021- yilning yanvar-fevral oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Jizzax viloyatida jami **356,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **100,5 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.


Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.03.2020- yil	01.03.2021- yil	
	Jizzax viloyati	1863	2053	110,2
	Jizzax sh.	807	877	108,7
	tumanlar:			
	Arnasoy	53	57	107,5
	Baxmal	70	79	112,9
	G'allaorol	111	128	115,3
	Sh. Rashidov	330	356	107,9
	Do'stlik	50	65	130,0
	Zomin	125	124	99,2
	Zarbdor	80	103	128,8
	Zafarobod	21	24	114,3
	Mirzacho'l	44	50	113,6
	Paxtakor	59	68	115,3
	Forish	40	45	112,5
	Yangiobod	807	877	108,7


**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.03.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh. (42,8 %), Sh. Rashidov (17,3 %) va G'allaorol (6,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **9,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **137,5** foizga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **7,5** % punktga ko'paydi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **84,7 %** i yoki 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **130,9 %**), Zafarobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,3 %**) ga to'g'ri keldi, Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,0 %**) ga to'g'ri keldi




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **77,7 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oylari ko'rsatkichlariga nisbatan **1,7 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **102,0 %** ni tashkil etgan holda **276,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **19,6 %** ni tashkil etdi yoki **70,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **90,2 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **12,8** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **343,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,4 %** va **96,6 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-fevral oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **80,4 %** i yoki **286,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

80,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **9,5** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **3,3 %** ni tashkil etdi

3,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **214,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **74,7 %** ni tashkil etdi.

74,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **63,1** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **22,0 %** ni tashkil etdi.

22,0 %




**2021- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Jizzax viloyati	356,4	100,5	277,4
Jizzax sh.	143,6	103,4	88,0
tumanlar:			
Arnasoy	4,8	97,1	4,0
Baxmal	10,5	98,3	9,5
G'allaorol	15,2	95,4	14,5
Sh. Rashidov	77,3	99,3	72,7
Do'stlik	10,6	95,9	8,1
Zomin	18,5	99,4	15,4
Zarbdor	12,7	96,8	11,9
Zafarobod	18,2	108,1	14,0
Mirzacho'l	5,3	80,3	4,3
Paxtakor	16,4	97,4	15,5
Forish	13,5	99,5	11,3
Yangiobod	9,8	97,7	8,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,6 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,5 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **19,0 %** punktga ko'payib, **75,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga ko'payib, **24,1 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **17,6 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **12,3 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,3 %** (**12,0 %** punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi **3,1 %** (**0,3 %** punktga kamayish)ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibiga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **0,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **0,4 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **99,6 %** (**0,4 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-fevral oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Jizzax viloyati	356,4	284,7	44,8	26,9
Jizzax sh.	143,6	113,9	18,0	11,7
tumanlar:				
Arnasoy	4,8	3,8	0,6	0,4
Baxmal	10,5	8,2	1,3	1
G'allaorol	15,2	12,2	1,9	1,1
Sh. Rashidov	77,3	63,2	10	4,1
Do'stlik	10,6	8,6	1,3	0,7
Zomin	18,5	14,9	2,3	1,3
Zarbdor	12,7	10,2	1,6	0,9
Zafarobod	18,2	13,8	2,2	2,2
Mirzacho'l	5,3	4,1	0,6	0,6
Paxtakor	16,4	13,2	2,1	1,1
Forish	13,5	10,7	1,7	1,1
Yangiobod	9,8	7,9	1,2	0,7

*Hududlar bo'ycha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jizzax shahrida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 40,1 % i yoki **114,0** mlrd. so'm), shuningdek, Sh. Rashidov tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 22,2 % i yoki **63,2** mlrd. so'm), Zomin tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 5,2 % i yoki **14,9** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.



**JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**Jizzax viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73